

**MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARI FAOLIYATI.**

Mutalibova Zahroxon Mirzabahrom qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Xomidova Malohatoy Oktyabrjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyatning ma'lumot olish va fikr almashish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda OAV so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ushbu tezisda OAV faoliyatining muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: OAV, jurnalistlarga tahdid, respublika anjumanı, Saida Mirziyoyeva nutqi.

Abstract: Mass media (mass media) play an important role in society's process of obtaining information and exchanging ideas. Mass media in Uzbekistan has undergone significant changes in recent years. This thesis analyzes the problems and prospects of media activity

Keywords: Mass media, threat to journalists, republic conference, Saida Mirziyoyeva's speech

Аннотация: Средства массовой информации (СМИ) играют важную роль в процессе получения обществом информации и обмена идеями. За последние годы средства массовой информации в Узбекистане претерпели значительные изменения. В данной диссертации анализируются проблемы и перспективы деятельности СМИ.

Ключевые слова: СМИ, угрозы журналистам, республиканская конференция, выступление Саиды Мирзиёевой

Kirish

21-asr axborot asri, ma'rifat asri. Binobarin, ya'ni shu asrga kelib hayot shu darajada jiddiyashib kettiki, bu jarayonning qudratli oqimida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yanada ortdi. Hozir jahoning u yoki bu burchagida ro'y bergan yoxud sodir bo'layotgan voqeа-hodisa haqida gazeta va jurnal, radio va televide niye orqali tez fursatda hatto to'g'ridan- to'g'ri axborotlar olish imkoniga egamiz. Shu bois bugungi kunda behisob ommaviy axborot vositalari tomonidan jamiyatimiz betinim yangiliklar va xabarlar oqimi bilan ta'minlamoqda. Ayniqsa, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari sohasida rоy bergan kashfiyot va ixtiolar, axborot olish va tarqatish uchun keng imkoniyatlar olib beruvchi kompyuter

texnikasi, xalqaro axborot aloqa tizimi, internetning hayotimizga kirib kelishi jamiyatimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Asosiy qism

Bugungi kunda OAV jamiyat hayotida asosiy rol o'ynamoqda. Shu jumladan, OAV ning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni ham tezlik bilan mustahkamlanib bormoqda Ommaviy axborot vositalarining mamlakatimizdagi faoliyati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yili mamlakatimizda bor yo'gi 395 ta OAV faoliyat yuritgan. 2016- yilga kelib ularning soni 1437 taga yetgan bo'lsa, bugun ularning soni 2 mingga yaqinlashdi va ularning aksariyati xususiydir.O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.Bu esa mamlakatimizda ommaviy axborot vositalariga qaratilayotgan eng katta e'tiborlarning namoyishidir. Ammo, "Guruch ham kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek, ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyatida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, senzura va cheklolvar jurnalislarning erkinligini to'smoqda, bu esa mustaqil axborot olish imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchidan, feyk yangiliklar va dezinformatsiya tarqatilishi ishonchli ma'lumotlarga erishishni qiyinlashtiradi. Uchinchi muammo esa jurnalislarning xavfsizligidir, chunki ular ko'pincha tahdidlarga duch kelishadi. To'rtinchidan, OAVlar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa sifatlari jurnalistika olib borishga to'sqinlik qiladi. Nihoyat, malakali kadrlarning yetishmasligi axborot sifatini pasaytirishi mumkin.Ammo,joriy yilning 28-may kuni Toshkentda o'tkazilgan "OAV sohasida milliy qonunchilikni yanada yaxshi takomillashtirishning dolzarb masalasi" respublika anjumanini bo'lib o'tgandan so'ng barcha muammolar yetarlicha o'z tasdiqini topdi.Tadbirda jurnalislardan huquqlarini himoya qilish, aholi va jurnalislardan fikrlari, taklif va tavsiyalarini o'rganish uchun qayta aloqa kanallarini tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

«Biz OAVlarimiz haqiqatdan ham hokimiyatning mustaqil tarmog'iga aylanishi uchun ularni rivojlantirishga harakat qilmoqdamiz», — dedi agentlik direktori Komil Allamjonov kirish so'zida.

Tadbir ishtirokchilari bugun O'zbekistonda OAVning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida va davlat hokimiyati organlari matbuot xizmatlari faoliyatida muammolar mavjudligini qayd etdi.

«Biz mass-media jamiyatda katta rol o'ynashini hamda davlat va aholi o'rtaida ko'priq vazifasini bajarishini tushunib yetishimiz kerak. O'rtamizdagi aloqalar qancha yaxshi yo'lga qo'yilsa, mamlakat shuncha taraqqiy etadi. Bugun davlat idoralari javobgar bo'lgan ko'plab muammolarimiz bor», — dedi agentlik direktori o'rinosbasari Saida Mirziyoyeva. Muammolarni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi va

jurnalistlar kasb etikasi kodeksini ishlab chiqarish keng muhokamaga qo‘yildi.OAV bilan bog’liq muammolar bartaraf etililishi to’g’risida muhokamalar olib borildi.

Xulosa

Agar yuqorida ta’kidlangan muammolar o‘z tasdiqini topmasa, jamiyatda axborot etishmasligi yuzaga keladi, bu esa odamlarning xabardorligini kamaytiradi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish va muhim masalalarni muhokama qilish imkoniyati yo’qoladi. Nazorat va hisobdorlik pasayadi, bu esa korrupsiya va qonunbuzarliklarni kuchaytiradi. Madaniyat va bilim darajasi pasayadi, chunki OA Vlar ta’lim va madaniy materiallarni tarqatishda muhim rol o‘ynaydi.Ijtimoiy mas’uliyat hissi zaiflashadi, bu esa jamiyatni yanada bo‘s h va noaniq holatga olib kelishi mumkin.Ommaviy axborot vositalari (OAV) — jamiyatning fikrini shakllantiruvchi, axborotni tarqatuvchi va ijtimoiy muammolarni yorituvchi quyosh demakdir.Agar bu quyosh botsa,uning qayta ufqqa chiqishi dargumon.Zero,tarixni yozish ham uni o‘zgartira olish ham o‘zimizning qo‘limizdadir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. T.Ernazarov. “O‘zbekistonda vaqtli matbuot”1954- yil.
2. X.Yodgorov.”Nurli yo‘l” 1968-yil.
3. @lex.uz sayti.
4. O‘zbekiston Respublikasi hukumat partali gazetasi.